O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA USHBU SOHADA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish doirasida ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi izchil joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston sharoitida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonida tegishli sohalarni raqamlashtirish va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yishga e’tiborni yanada kuchaytirish zarurati vujudga kelmoqda.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan davlat organlari tomonidan o‘z funksiyalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

1. 2022-yil 1-sentabrdan boshlab, quyidagilarni nazarda tutuvchi “E-Antikorrupsiya” loyihasi (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) to‘liq ishga tushirilsin:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari bo‘yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralarini tizimli ravishda ko‘rish maqsadida “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri”ni (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) shakllantirish va yuritish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish va tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish orqali bartaraf etish.

Belgilansinki:

Loyiha “E-Anticor.uz” elektron platformasida amalga oshiriladi;

Reyestrni shakllantirish va yuritish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan amalga oshiriladi va Internet tarmog‘ida ochiq e’lon qilib boriladi.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash doirasida:

davlat tashkilotlari tomonidan ularga yuklangan har bir funksiya korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan Agentlik va Adliya vazirligi tomonidan

tasdiqlanadigan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tahlil qilib boriladi;

davlat tashkilotlari tomonidan o‘ziga yuklangan funksiyalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan ma’lumotlar shakllantirilib, ochiq e’lon qilib boriladi;

e’lon qilingan ma’lumotlar yuzasidan fuqarolarning takliflarini onlayn rejimda qabul qilish imkonini yaratgan holda ijtimoiy so‘rovlar va mustaqil ekspertlar ishtirokida muhokamalar o‘tkaziladi;

har bir funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi “past”, “o‘rta” va “yuqori” o‘lchovlarida “E-Anticor.uz” elektron platformasida baholab boriladi;

har bir funksiya bo‘yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo‘yicha choralarni o‘z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Reyestr yuritilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish tadbirlarini bajarish holati “E-Anticor.uz” elektron platformasida e’lon qilib boriladi.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (yillik) baholash va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini Reyestrga kiritish har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash davlat tashkilotlari tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan tashkil etiladi. Bunda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo‘lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun ularning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan iborat ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni mustaqil baholash maqsadida davlat tashkilotining faoliyati ushbu tashkilot bilan kelishilgan holda mustaqil tashkilot tomonidan tashqi baholashdan o‘tkazilishi mumkin. Bunda, tegishli davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qoniqarsiz amalga oshirilgan deb topilgan taqdirda, Agentlik ko‘rsatmasiga asosan uning faoliyati tashqi baholashdan o‘tkazilishi shart;

davlat tashkilotlarining rahbarlari o‘zlariga yuklangan funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish uchun shaxsan javobgardir.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (T. Narbayeva) Agentlik (A. Burxanov) bilan birgalikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash yakunlariga ko‘ra quyidagi choralarni ko‘rib borsin:

davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish bo‘yicha axborotlarini eshitish va natijasiga ko‘ra kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini ko‘rish bo‘yicha takliflar kiritish;

davlat tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etishda ijobiy natijalarga erishgan davlat tashkilotlarining tajribasini keng ommalashtirish.

5. Agentlik (A. Burxanov) Adliya vazirligi (R. Davletov) bilan birgalikda hamda xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda:

uch oy muddatda davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning aniq mezon va usullarini nazarda tutuvchi uslubiyotni tasdiqlasin;

muntazam ravishda davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun mas’ul xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha o‘quv-trening va seminarlarni tashkil qilib borsin;

muntazam ravishda davlat tashkilotlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy yordam berib borsin.

6. Agentlik (A. Burxanov) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda hamda xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda 2022-yil 1-avgustga qadar Loyihani samarali amalga oshirishni ta’minlash uchun “E-Anticor.uz” elektron platformasini takomillashtirish, shu jumladan ushbu platforma doirasida davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash elektron tizimini yaratish choralarini ko‘rsin.

7. Agentlik va Adliya vazirligi tomonidan ayrim sohalar tahlildan o‘tkazilib, bir qator korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Adliya vazirligi tizimida kadrlar bilan ishlash yo‘nalishidagi byurokratik to‘siqlarga chek qo‘yish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Davlat boshqaruvi organlari kadrlar bilan ishlash yo‘nalishidagi byurokratik to‘siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimni 2023-yil 1-yanvarga qadar quyidagi talablar asosida joriy etsin:

vakant lavozimlarni e’lon qilishdan tortib, tanlov o‘tkazish va ishga qabul qilish natijalari bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarni to‘liq elektron tarzda amalga oshirish;

tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona elektron bazaga jamlagan holda axborotni to‘plash va unga ishlov berish;

kadrlarga oid ish yurituv hujjatlarini elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda faqat tizim orqali elektron shaklda qabul qilish va yuritish;

xodimlarning ish faoliyati samaradorligini avtomatik baholash va ularni masofaviy o‘qitish;

kadrlar bo‘yicha ma’lumotlarning elektron arxivini yuritish.

Belgilansinki, davlat boshqaruvi organlari kadrlar bilan ishlash bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish bo‘yicha sarf-xarajatlarni o‘zlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiradi.

9. Agentlik Bosh prokuratura Akademiyasi va Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan birgalikda hamda xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalarni tarqatish, erishilgan yutuqlar va tajriba bilan almashish, davlat xizmatchilari va fuqarolarning ushbu boradagi bilimlarini oshirishda foydalanishga mo‘ljallangan yagona interaktiv maydoncha — “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual platformasi” loyihasini ishga tushirsin.

Bunda, rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tajribasini o‘rganish, masofaviy ta’lim berishning interaktiv modullarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar uchun zarur adabiyotlar bazasini shakllantirish hamda mutaxassislar bilan onlayn anjumanlar o‘tkazish imkoniyatlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilsin.

Agentlik (A. Burxanov), Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev) va Adliya vazirligi (R. Davletov) joriy yilning oktabr oyiga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual platformasi” loyihasining to‘liq ishga tushirilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minlashga mas’ul etib davlat tashkilotlarining rahbarlari belgilansin.

11. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligiga (A. Ko‘chimov) ushbu qarorning mazmun-mohiyatini hamda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

12. Agentlik (A. Burxanov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar kiritsin.

13. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Agentlik direktori A.E. Burxanov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 11-may,
PQ-240-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga
1-ILOVA

Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Davlat xaridlari jarayonida tender, tanlov va boshqalarni o‘tkazishda manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy omilllarning mavjudligini aniqlashni raqamlashtirish. Jumladan, xarid jarayonlarida hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, “komplayens-nazorat” o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil sentabr	Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Qurilish vazirligi *(B. Zokirov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
2.	Budjet tashkilotlarida qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida qurilish va montaj ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochiqlash va baholash mexanizmlarini joriy etish. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida fuqarolardan noqonuniy qurilish holatlari yuzasidan murojaatlarni onlayn qabul qilish imkonini yaratish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Qurilish vazirligi (B. Zokirov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
3.	Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar balansidagi tovar-moddiy boyliklarni xatlovdan o‘tkazish hamda ularni tashkilot balansidan chiqarishning ochiq va shaffof elektron mexanizmini ishlab chiqish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Markaziy bank *(M. Nurmuratov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
4.	Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun (kasbiy) ijodiy imtihonlarni hamda oliy ta’lim muassasalarini bitirishda yakuniy davlat attestatsiya sinovlarini topshirishda shaffoflikni ta’minlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil dekabr	Davlat test markazi *(M. Karimov)*, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

				(A. Toshkulov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
5.	Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun berilgan imtiyozlarni xatlovdan o‘tkazib, qayta ko‘rib chiqqan holda yagona hujjatda ularning qat’iy ro‘yxatini shakllantirish hamda ushbu imtiyozlarni umumiy kvotaga kiritmaslik to‘g‘risidagi qoidani belgilash. Bunda: oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar berishni to‘liq raqamlashtirish va elektron platforma orqali amalga oshirilishini yo‘lga qo‘yish; oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar berishning shaffof tartibini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil dekabr	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(A. Toshkulov)*, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*, Davlat test markazi *(M. Karimov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, vazirlik va idoralar
6.	Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy (yotoqxona) bilan ta’minlash va talabalarni joylashtirishning elektron tizimini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar va elektron tizim	2022-yil avgust	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(A. Toshkulov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
7.	Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash (shu jumladan xorijiy OTMlardan) jarayonini raqamlashtirish, shuningdek, ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga hamda xorijiy OTMlar bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlariga qabul qilish va talabalar hisobini yuritishda shaffoflikni ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(A. Toshkulov)*, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*,

				Davlat test markazi *(M. Karimov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
8.	Korxona va tashkilotlar ishchi va xizmatchilariga davlat tasarrufidagi sanatoriy va boshqa dam olish maskanlariga yo‘llanma berish jarayonining ochiqligini ta’minlash.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi *(Q. Rafikov)*
9.	Budjet tashkilotlari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxona va tashkilotlarda sug‘urtalash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash maqsadida ushbu jarayonlarni raqamlashtirish va raqobat muhitini shakllantirish.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi *(A. Burxanov)*
10.	Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahbuslar uchun davlat xizmatlari, shu jumladan notariat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil oktabr	Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*
11.	Qonunchilikda belgilangan mol-mulk va avtotransport vositalariga taqiq qo‘yish va undan chiqarishning elektron tartibini joriy etish hamda fuqarolarga taqiq mavjud yoki mavjud emasligini onlayn tekshirish imkoniyatini yaratish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil iyun	Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, Markaziy bank *(M. Nurmuratov)*, Kadastr agentligi *(F. Pulatov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

				(A. Burxanov), Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, vazirlik va idoralar
12.	Mavjud avtobekatlarni xatlovdan o‘tkazib, ular joylashgan yer uchastkalarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, shuningdek, avtobekatlarda tadbirkorlik obyektlarini joylashtirishga ruxsat berishning shaffof elektron mexanizmlarini yaratish va ulardan foydalanishning aniq talablarini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil sentabr	Transport vazirligi *(I. Mahkamov)*, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi *(A. Abduvaliyev)*, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi *(Sh. Shoraxmetov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Kadastr agentligi *(F. Pulatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
13.	Tashqi reklama obyektlarini joylashtirish bilan bog‘liq barcha munosabatlarni raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirish hamda onlayn auksion tartibiga qat’iy rioya etgan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil sentabr	Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi *(Sh. Shoraxmetov)*, Toshkent shahar hokimligi *(J. Artikxodjayev)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga 2-ILOVA

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etish bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish				
1.	Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan loyihalar tanlovini e’lon qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida	Innovatsion rivojlanish vazirligi *(I. Abduraxmonov)*, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, manfaatdor vazirlik va idoralar
2.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi doirasida xorijiy investorlar tomonidan investitsiya kiritish uchun to‘sqinlik qilayotgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Axborot-tahliliy materiallar va takliflar	2022-yil iyul	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (*L. Kudratov*), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir qilinishiga sabab bo‘luvchi omillarni o‘rganish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Axborot-tahliliy materiallar va takliflar	2022-yil iyul	Biznes-ombudsman *(D. Kasimov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Bosh prokuratura (*N. Yo‘ldoshev*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
4.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi doirasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazgan holda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil oktabr	Biznes-ombudsman *(D. Kasimov)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*),

	aralashganlik holatlarini, ularning faoliyatini cheklashga yoki to‘xtatishga sabab bo‘lgan asossiz va noqonuniy harakatlar (harakatsizlik)ni o‘rganish.			Bosh prokuratura (*N. Yo‘ldoshev*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
5.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini joriy etish orqali davlat boshqaruvi sohasida manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni o‘r?anish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Bosh prokuratura (*N. Yo‘ldoshev*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi doirasida respublikada 2021-2022-yillarda sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatchilikni tahlil qilish asosida ularga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Axborot-tahliliy materiallar va takliflar	2022-yil dekabr	Bosh prokuratura (*N. Yo‘ldoshev*), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hujjatlarni o‘rganish hamda zaruratga ko‘ra ularning normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Axborot-tahliliy materiallar va takliflar	2022-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
8.	Ijtimoiy so‘rovlar, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid respublika miqyosida amalga oshirilgan ishlarning natijalari va ta’sirini baholash.	Axborot-tahliliy ma’lumot	2022-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), “Ijtimoiy fikr” markazi (*N. Raximova*)
9.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini joriy etish sohasidagi ilg‘or	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*),

	xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida rivojlangan mamlakatlarga o‘quv-tanishuv safarlarini tashkil etish.			Adliya vazirligi (*R. Davletov*), manfaatdor vazirlik va idoralar
II. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini shakllantirish				
10.	Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmani tasdiqlash va davlat idoralariga tarqatish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil iyul	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Adliya vazirligi *(R. Davletov)*
11.	“E-Antikorrupsiya” loyihasining samarali amalga oshirilishini ta’minlash uchun “E-Anticor. uz” elektron platformasini takomillashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (*Sh. Shermatov*), Bosh prokuratura (*N. Yo‘ldoshev*)
12.	Davlat tashkilotlarining faoliyati ustidan nazorat olib borishda jamoatchilik ishtirokini kengayshtirish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.	Chora-tadbirlar rejasi	2022-yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash *(T. Narbayeva),* Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Adliya vazirligi (*R. Davletov*)
13.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishgan davlat	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*),

	tashkilotining tajribasini ommalashtirish, ushbu sohada dolzarb muammolarni muhokama qilish bo‘yicha konferensiya va anjumanlar o‘tkazish.			manfaatdor vazirlik va idoralar
14.	Davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun mas’ul xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha o‘quv-trening va seminarlarni tashkil qilib borish.	Amaliy chora-tadbirlar	Muntazam ravishda	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*), Bosh prokuratura *(N. Yo‘ldoshev)*
15.	Davlat tashkilotlariga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy yordam berib borish.	Amaliy-uslubiy chora-tadbirlar	Muntazam ravishda	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (*A. Burxanov*)

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 07/22/240/0407-son)